ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK 811.512.133.:81.373.4
ORCID: 0009-0004-8114-7000
TOSHQULOVA ZEBINISO BAXRIDDIN QIZI
Termiz davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi
E-mail: toshqulovazebiniso171@gmail.com
+998957670409

ZAMONAVIY SHOIRLAR IJODIDA TUN VA TONG OBRAZI DIALEKTIKASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong obrazi dialektikasi poetik-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tun va tong motivining inson hissiyotlariga ta'siri, bilish jarayonidagi o'rni, estetik-etik hamda axloqiy jihatlari, shuningdek, diniy-falsafiy talqini yoritiladi. Tun va tong obrazlarining badiiy adabiyotdagi konseptual ahamiyati, ularning lirik makondagi funksiyasi, shoir tafakkuridagi ramziy-majoziy qatlamlari ilmiy tahlil etiladi. Maqolada tun va tong poetikasining zamonaviy she'riyatda lirik qahramon ruhiy holatini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida shakllanganligi asoslab beriladi hamda zamonaviy shoirlar ijodidan misollar orqali dialektik birlikning estetik imkoniyatlari ochib beriladi. Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong motivining badiiy-falsafiy talqini, ularning poetik birlik sifatida shakllanishi hamda estetik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tun va tong dialektikasi badiiy adabiyotda tasviriy vosita bo'lish bilan birga, ijodkor tafakkurining mahsuli sifatida konseptual darajaga ko'tarilgani asoslab beriladi. Tun va tong obrazlari shoirning ichki kechinmalari, ruhiy holati, falsafiy mulohazalari hamda borliqqa munosabatini ifodalovchi muhim poetik birliklar sifatida talqin etiladi.

Maqolada tun va tong motivining qadimgi davr adabiyotidan boshlab zamonaviy o'zbek she'riyatigacha bo'lgan taraqqiyot yo'li izchil yoritilib, ularning diniy, ishqiy, estetik va ramziy ma'nolar kasb etish jarayoni ochib beriladi. Ayniqsa, XX asr va hozirgi davr she'riyatida tun va tong tasvirining yangi mazmun, ramziy teranlik va estetik ohang kasb etgani alohida ta'kidlanadi. Ushbu birliklar inson hissiyotlaridagi mavhumlik, ruhiy iztirob, umid va tafakkur jarayonlarini ifodalashda muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqot davomida Abdulla Oripov, Iqbol Mirzo kabi zamonaviy shoirlar ijodidagi tun va tong tasvirlari tahlil qilinib, ularning lirik obraz yaratishdagi badiiy mahorati ochib beriladi. Xususan, Abdulla Oripovning "Talosh payti" she'ri misolida tun va kun, nur va zulmat o'rtasidagi qarama-qarshilik falsafiy ramz sifatida talqin qilinadi. Xulosa qismida tun va tong motivining zamonaviy o'zbek she'riyatida estetik-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lgan yetakchi badiiy konseptga aylangani ilmiy asosda umumlashtiriladi.

KALIT SO'ZLAR: *Tun obrazi, tong obrazi, dialektika, poetika, konsept, lirik qahramon, ramz, majoz, zamonaviy o'zbek she'riyati, badiiy tafakkur, estetik talqin, hissiyot, falsafiy motiv, poetik birlik.*

ХАРАКТЕРИСТИКИ ДИАЛЕКТИКИ ОБРАЗА НОЧИ И УТРА В ТВОРЧЕСТВЕ СОВРЕМЕННЫХ ПОЭТОВ

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется диалектика образа ночи и рассвета в современной узбекской поэзии с поэтико-философской точки зрения. Исследование освещает влияние мотива ночи и рассвета на человеческие эмоции, его место в познавательном процессе, эстетические, этические и моральные аспекты, а также религиозно-философскую интерпретацию. Научно анализируется концептуальное значение образов ночи и рассвета в литературном творчестве, их функция в лирическом пространстве, а также символические и образные пласты поэтического мышления. В статье обосновывается тот факт, что поэтика ночи и рассвета формируется в современной поэзии как важное художественное средство выражения душевного состояния лирического героя, и раскрываются эстетические возможности диалектического единства на примерах из творчества современных поэтов. В статье анализируется художественно-философская интерпретация мотива ночи и рассвета в современной узбекской поэзии, их формирование как поэтического единства и их эстетические функции. В исследовании утверждается, что диалектика ночи и рассвета, будучи образным средством в литературном творчестве, поднялась на концептуальный уровень как продукт творческой мысли. Образы ночи и рассвета интерпретируются как важные поэтические единицы, выражающие внутренние переживания поэта, его душевное состояние, философские размышления и отношение к миру. В статье последовательно освещается путь развития мотива ночи и рассвета от античной литературы до современной узбекской поэзии, раскрывается процесс приобретения ими религиозного, романтического, эстетического и

символического значений. В частности, подчеркивается, что в поэзии XX века и современности образ ночи и рассвета приобрел новое содержание, символическую глубину и эстетический тон. Показано, что эти единицы являются важным художественным средством выражения двусмысленности, духовных страданий, надежды и мыслительных процессов человеческих эмоций.

В ходе исследования анализируются образы ночи и рассвета в произведениях современных поэтов, таких как Абдулла Арипов и Икбол Мирзо, раскрывая их художественное мастерство в создании лирической образности. В частности, на примере стихотворения Абдуллы Арипова «Время сражаться» противопоставление ночи и дня, света и тьмы интерпретируется как философский символ. В заключении на научной основе обобщается, как мотив ночи и рассвета стал ведущим художественным понятием, оказывающим эстетическое и эмоциональное воздействие в современной узбекской поэзии.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Образ ночи, образ рассвета, диалектика, поэтика, концепция, лирический герой, символ, метафора, современная узбекская поэзия, художественная мысль, эстетическая интерпретация, эмоция, философский мотив, поэтическое единство.*

CHARACTERISTICS OF THE DIALECTIC OF THE IMAGE OF NIGHT AND MORNING IN THE WORK OF MODERN POETS

ABSTRACT. This article analyzes the dialectic of the image of night and dawn in modern Uzbek poetry from a poetic and philosophical point of view. The study highlights the influence of the motif of night and dawn on human emotions, its place in the cognitive process, its aesthetic, ethical and moral aspects, as well as its religious and philosophical interpretation. The conceptual significance of the images of night and dawn in literary literature, their function in the lyrical space, and the symbolic and figurative layers of the poet's thought are scientifically analyzed. The article substantiates the fact that the poetics of night and dawn are formed in modern poetry as an important artistic means of expressing the mental state of the lyrical hero, and reveals the aesthetic possibilities of dialectical unity through examples from the work of modern poets. This article analyzes the artistic and philosophical interpretation of the motif of night and dawn in modern Uzbek poetry, their formation as a poetic unity, and their aesthetic functions. The study argues that the dialectic of night and dawn, along with being a figurative means in literary literature, has been raised to a conceptual level as a product of creative thought. The images of night and dawn are interpreted as important poetic units expressing the poet's inner experiences, mental state, philosophical reflections, and attitude to the world.

The article consistently illuminates the development path of the night and dawn motif from ancient literature to modern Uzbek poetry, revealing the process of acquiring their religious, romantic, aesthetic, and symbolic meanings. In particular, it is emphasized that in the poetry of the 20th century and the present, the image of night and dawn has acquired new content, symbolic depth, and aesthetic tone. It is shown that these units are an important artistic means of expressing the ambiguity, spiritual suffering, hope, and thought processes of human emotions.

In the course of the study, the images of night and dawn in the works of contemporary poets such as Abdulla Aripov and Iqbol Mirzo are analyzed, revealing their artistic skill in creating lyrical imagery. In particular, in the example of Abdulla Aripov's poem "Talosh Paity", the opposition between night and day, light and darkness is interpreted as a philosophical symbol. The conclusion summarizes on a scientific basis how the motif of night and dawn has become a leading artistic concept with an aesthetic and emotional impact in modern Uzbek poetry.

KEYWORDS: *Image of night, image of dawn, dialectics, poetics, concept, lyrical hero, symbol, metaphor, modern Uzbek poetry, artistic thought, aesthetic interpretation, emotion, philosophical motif, poetic unity.*

KIRISH. Ma'lumki, tun va tong birliklariga poetik jihatdan yondashuv ularning mazmunini badiiy adabiyotga ham singib ketishiga, u bilan o'zaro aloqadorlik hosil qilishga yordam beradi. Tun va tong motivi badiiy adabiyotdagi mavjud asarlarda ijodkor tafakkur mahsuli sifatida konsepsiya o'laroq namoyon bo'ladi. Ijodkorning ijod namunalaridagi lirik mazmunni kuchaytirib, ularga badiiyat baxsh etishga yordam beradi. Tun va tong tasviridan badiiy adabiyotda unumli foydala olish shoir va yozuvchilarning ijodkorlik mahoratini aks ettirishi bilan birgalikda ular yaratgan asarlarning o'quvchilar tomonidan sevib o'qilishiga, ularda estetik zavq uyg'otishga, emotsional ta'sir o'tkazishga ko'maklashadi. Badiiy adabiyot ijodkor tafakkuri, predmet hamda harakatlar umumlashmasi sifatida gavdalanar ekan, ular tarkibidan tun va tong motivining o'rin olishi badiiy adabiyotga ko'tarinki ruh baxshida etadi.

Tun va tong dialektikasining o'zbek she'riyatiga kirib kelishi davr nuqtayi nazaridan xilma-xil sanaladi. Qadimgi davrlar adabiyotida aks etgan tun va tong tasviri o'zining kishilik faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini aks ettiribgina qolmay, balki diniy muhit talqinini ham yoritishda muhim ahamiyat kasb etgan, o'rta asrlarga kelib mavzu doirasi yanada kengayib oshiqlik mavzusi asosiy mavzu sifatida talqin qilina boshlagach, uning tarkibidan ham bevosita tun va tong motivi o'rin ola boshladi. XX asr adabiyoti ham mavzu jihatdan o'zining xilma-xilligini ko'rsata oldi, badiiylik ustuvorligini namoyon etdi. O'zbek she'riyatiga xos unsur sifatida tun, tong poetik birliklari yangicha janrlar tarkibida umuman o'zgacha mazmun kasb etgan holda paydo bo'ldi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong talqini yangicha ma'no kasb etdi, uning avvalgi davrlardagi mavjud vazifasi o'zgarib, kishiga estetik zavq bag'ishlash vazifasi kun tartibiga chiqdi. Tun va tong dialektikasi kishi hissiyotlarini ifodalovchi asosiy omilga aylandi. Inson hissiyotlardagi mavhumlik, ramziylik, majoziylik; uning tafakkuridagi falsafiylik kabi hislarni ifodalashda tun va tong talqini dastlabki o'rinlarga chiqdi, deya bemalol ayta olamiz. Bu jihatlar, ayniqsa, she'rlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta'kidlash lozimki, zamonaviy o'zbek she'riyatida tun, tong poetikasi o'ziga xos lirik qahramon sifatida gavdalanib, B.Nazarovning "Badiiy tagqatlam va estetik ideal" asarida aytilganidek, "badiiy asarning matni yuzasidan, yaqqol ko'rinib turgan holat, maqsadlari bilan bir qatorda undan tashqari, uning zamirida ochiq namoyon bo'lib turmagan, lekin yozuvchining badiiy niyatlarini aks ettirishda muhim rol o'ynovchi xususiyatlarni" badiiy jihatdan talqin qiluvchi obrazga aylanib ulgurdi. Bundan kelib chiqadiki, tun va tong tasvirini adabiy jihatdan talqin qilish obrazlilik nuqtayi nazaridan lirik obrazning ehtiyojlari o'laroq yaqqol namoyon bo'ladi. Kitobxondan esa ushbu talqinni anglash uchun yuksak badiiy did, sermulohazalik, mahorat talab etiladi. Sababi, ijodkor tomonidan uzatilgan axborotni qabul qilish kitobxon tomonidan amalga oshirilib, yuksak saviyaga asoslanadi.

Badiiy asarlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, to'g'ri, ularda tun va tong tasviriga oid elementlarning qo'llanishi doimiy ravishda kuzatilmasligi mumkin, bu ayrim hollarda ko'zga tashlanadigan holat hisoblanadi. Biroq tun va tong elementlarini ijod namunalarida qo'llash, badiiy asarlarga tatbiq qilish tafakkur mahsuliga asoslanadi. Ularni mohiyatan anglash orqali shoir va yozuvchilarning asosiy poetik niyatini anglash mumkin. Tun va tong tasviriga daxldor birliklarning ijodkorlar tomonidan alohida ahamiyat bergan holda qo'llanishi badiiy aspektning darajasini sezilarli oshiradi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong tasvirini badiiy asarda gavdalantirish ushbu detallarning o'zi bilangina cheklanib qolmaydi. Tun va tong motivini ma'lum uya deb olsak, ushbu uyadan turli elementlar joy oladi, unga daxldor birliklar ushbu uya atrofida jamuljam bo'ladi. Quyosh chiqishi va botishi, yangi hayotning boshlanishi va yangi kun, tabiat uyg'onishi, sokinlik, ma'yuslik, umid kabi hislar, tabiiy jarayonlar ushbu uya atrofida shakllangan birliklar qatoridan joy oladi.

Shoir ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda tun va tong dialektikasi badiiy asarda aks ettirish orqali yozuvchining badiiy mahoratini sezish mumkin. Zero, ijodkor o'zining tafakkur olamidan kelib chiqqan holda she'rlarida ma'no aks ettirishga harakat qiladi. Adabiy asarlardagi tun va tong tushunchalari badiiy konsept sifatida yaqqol namoyon bo'ladi. Konsept esa fikrlash, tafakkur mahsuli bo'lib, dunyodagi g'oya, tushuncha, rejalarning umumiy ko'rinishi hisoblanadi. Unda asos va maqsad namoyondir. Konseptning asosiy tematikasi, nima haqida nutq irod etish, xohish-istaklar ko'lamiga asoslanib, ma'lum maqsadga yo'naltiriladi. G'oyalar tizimining nimaga qaratilganligini, ularning tarkibiy tuzilmasini yaxlit holda namoyon etadi. Konsept tuzilma tarkibining nimalardan tashkil topganligi, ularning o'zaro aloqadorligini namoyon etadi. Tanlangan tizimning ichki strukturasi, ketma-ketlik holatlari, barqarorlik jihati konsept mavzusi orqali anglashiladi. Konsept tahlilini amalga oshirish unga qaysi nuqtayi nazardan yondashish, ifodaviy uslubini anglashga asoslanadi. Natijada, konsept asosida olingan tahlil kutilajak jarayonga ta'sir qiladi.

Badiiy asarlardan o'rin olgan tun va tong konsepti asar mazmunida muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, u lirik makondagi poetik niyat va maqsadning oydinlashuviga, ijodkorning nima demoqchi ekanligini anglashga, asar mazmuniy tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlarini ochiqlashga xizmat qiladi. Xulosa qilish mumkinki, tun va tong motiviga asarda urg'u berish ularning estetik-emotsional jihatlarini ochiqlashga yordam beradi. Asarning mantiqiy xarakteristikasini yoritishda tun, tong tasviriga oid o'rinlar asar mohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodkor tun, tong poetik birliklarini asar mohiyatiga singdirib nima demoqchi, qaysi jihatlarga urg'u bermoqchiligini aniqlash uchun, avvalo, ularning nima ma'no anglatishini sezish o'rinlidir.

Ma'lumki, tun - kishi hislarini anglashga, mulohaza

qilishga, tafakkur etishga, diqqatni jamlashga yordam beruvchi qulay fursat o'laroq gavdalansa, tong insonga umid baxsh etuvchi, uning yorqin hislarini jilvalantiruvchi, sokinlik davri sifatida badiiy asarlarda qadim-qadimdanoq qalamga olingan azaliy mavzulardan biri hisoblanadi. Shoirlar ham ushbu mavzularga qay jihatdan yondashuvlarini aks ettirishda o'z individualliklaridan unumli foydalanadilar. Bu orqali ularning, I.Ye.Mostepananonka aytganidek, "har bir shoir bu olamga o'z qarashlari, o'zining fikrlari, dunyoni badiiy ko'rishi, idrok etishi va tuyg'ulari ifodasiga ega bo'lgan muhim shaxsdir. Har bir katta shoirning ijodi o'ziga xos, original, betakror"ligi aks etadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tun, tong talqinini badiiy asarda gavdalantirishda shoirlar turli jihatlarga e'tibor qaratadilar, kimdir ularning estetik nuqtasiga urg'u bersa, yana kimdir undagi mantiqiy funksiyani oldingi o'ringa qo'yadi. Ayrim shoirlar esa tun va tong motiviga badiiylik jihatdan yondashadilar. Ularning har biridagi uslubiy individuallik shoirona ruhning ajralmas qismi sifatida gavdalanadi.

Tun va tong dialektikasi o'zining barcha xususiyatlarini jamuljam etgan holda asarlar uchun badiiy manba, g'oyalar asosi vazifasini bajara oladi. Asardagi tun, tong talqinini badiiyat nuqtayi nazaridan ochib bera olish boshqa lirik obrazlar tizimining ham yaqqol gavdalanishiga zamin yaratadi. Ushbu jihatlarni nazarda tutgan holda aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek she'riyatiga tun va tong motivining kirib kelishi davr yangilanishi, mazmun uyg'unlashuvi, mavzu talqinidagi o'zgarishlarga yaqqol sabab bo'la oldi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda aytish mumkinki, zamonaviy o'zbek she'riyatida tun va tong motivi davr talabiga aylanib ulgurdi, shoirlar hislarining yorqin aks etishida bevosita ushbu birliklarning ishtiroki muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Tun va tong tasviri har bir xalq hayotida mavjud bo'lgani kabi har bir xalq adabiyotida ham namoyon bo'ladi. U o'sha xalq adabiyotida mavjud bo'lgan tasvir vositalaridan biri sanaladi. Bu tasvir vositalari turli xalqlarda turli g'oyalarni ilgari suradi, yoki turli ma'no ottenkalarini beradi. Shuni hisobga olgan holda biz tun va tong dialektlarini jahon va o'zbek adabiyotida quyidagicha tadqiq qilamiz. Rus adabiyotida tong hamda tun dialekti o'zining ifodasini topgan bo'lib, yozuvchi va shoirlar ijodida bu ikki dialektning o'rin olishi badiiylikning yuksak cho'qqisi sifatida adabiyotda baholangan [4:126]. Tun va tong obrazlari o'zbek she'riyatida o'zining serma'noligi, tasvir boyligi bilan farqlanishini jahon adabiyotini o'zbek adabiyoti bilan qiyoslaganda ko'rib o'tganmiz.

Badiiy adabiyotda tun va tong dialektikasi voqelikda sodir bo'layotgan hodisalarning lirik ko'rinishiga asoslanib, shoir tafakkuri, mulohazalarining she'riy talqini sifatida maydonga chiqdi. To'g'ri, barcha asarlarda ushbu elementlar asosiy obraz sifatida ishtirok etmasa-da, biroq kishi hislarining yorqin namunasi o'laroq shoirlar tomonidan keng qo'llana boshlandi. Lirik asarlardagi tun va tong motivi shoir qarashlarining qay holatda ekanligidan dalolat beradi.

Quyosh botib borar,
Ufq qirmiz rang,
Qurshab olayotir yer yuzini tun.
So'nggi daqiqada qilayotir jang
Tun va kun, tun va kun, tun va kun.

Talosh payti derlar ushbu lahzani,
Olishar oshkora nur bialn zulmat.
Borliq jim kuzatar qonli lahzani,
Har yonda vahmkor, sirli sukunat [2:367]

Abdulla Oripov o'zining ushbu she'ri nomlanishi ham "Talosh payti" deb nomlanib, she'r chuqur ramziylikka egadir. Unda tun va tong obrazlaridan foydalangan holda borliqdagi adabiy ziddiyat tasvirlangan. Quyoshning botishi bu oddiy tabiat hodisasi emas, aksincha bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish, hayotiy jarayonlarning tabiiy uzluksiz almashinuvi ramzi sanaladi. Ufqning qirmiz rangga kirishi esa murosasizlik, kurash va keskinlikni ifodalash vazifasini o'taydi.

"Tun va kun"ning so'ngi soniyalardagi kurashi inson hayotidagi, ichki dunyosidagi ziddiyatlar, tanlov oldidagi ruhiy kurashlar bilan uyg'unlashadi. "Talosh payti" deb nom olgan ushbu lahza chegaraviy holatlar bo'lib, unda zulmat va nur ochiqchasiga va oshkora holda kurashga kiradi. Bu holatlar esa yovuzlik va ezgulik, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi abadiy kurashlarni o'iquvchiga eslatadi.

Tun poetikasini lirik nuqtayi nazardan ochib bera olish she'riyat mavzusiga bog'liq sanaladi. Qaysi mavzu qalamga olinyapti, uning qay jihatiga tun aloqador deya shoir ushbu dialektik birlikni o'rtaga tashlaydi:

Dilim xufton, kunduzimni tunday qilib,
Va'dasida turmadi u, shunday qilib.
Balki bir kun so'zlarini unutmarman,
Ko'zlarini unutayin qanday qilib? [3:110]

Shoir lirik mavzusi ishq sanalib, bundagi shoirning ishqiy kechinmalari bayon qilinadi. Tun shunday davrki, unda oshiqlar o'z yorlari vaslidan umidvor bo'lishadi, ular haqida o'ylar suradilar. Shoirning aytishicha, yor hajri uni shu ko'yga soldiki, hatto kunduzlari ham tunga aylandi, hayot yo'llari izdan chiqdi, bunga yagona sabab yorning fatton ko'zlaridir. Bunda ijodkor mubolag'aviy tasvir uslubini yaratgan, ya'ni kunduzlarining ham tunga aylanish tasviri oshiq holatining yanada nochor ekanlini tasvirlamoqda.

Hozirgi kunda adabiy tilda tong, azon, subh, subhidam, sahar kabi bir qator so'zlar kunning erta boshlanish qismi sanaladi. Bular ishlatilishi bilan kunning bir necha qismlarini ifodalaydi. Shu bilan birga adabiyotlarda, lug'atlarda ham subhning ikki qismga bo'linishini ko'rishimiz mumkin. Bular: subhi kozzib va subhi sodiq sanaladi. Ilm-fanda subhi kozzib va subhi soddiq o'rtasidagi vaqt aniqlab bo'lmas darajada qisqa deb aniqlangan. [5:253]

Oqshom ilmiy nuqtayi nazardan quyosh botib boshlanadigan vaqtdir. Oy va yulduzlarning chiqishi ketma-

ket amalga oshadigan hodisalar sanalib, Iqbol Mirzo ham ushbu holatni "Oqshom" she'rida qalamga oladi:

Oqshom yulduzlarni hilol uyg'otar,
Daryo to'lqinlarin shamol uyg'otar.
Qaydasan, ey shamol olib ketgan gul?
Meni shu alamli savol uyg'otar. [3:85]

Tabiat hodisalariga e'tibor beradigan bo'lsak, kuchli shamol bo'lishi, yomg'ir yog'ishi kabilar, asosan, tunda sodir bo'ladi. Ushbu tabiiy hodisotlarni mohirlik bilan o'z lirik maqsadiga ulay olgan Iqbol Mirzo ham qalbidan o'tayotgan kechinmalarini bayon qilishda tun vaqtiga murojaat qiladi. O'xshatish tasviriy vositasini birinchi misrada zimdan qo'llay olishga erishadi, ya'ni hilolning yulduzlarni uyg'otishi mohiyatan farzandlarning ona tomonidan o'xshatilishiga mengzalgan, nazarimizda. Daryo to'lqinlarining ham mavj urib oqishiga esa asosiy sabab bu shamoldir. Oshiq kechinmalari ham bu tabiat hodisalariga o'xshash: yorning iztirobga to'la o'ylari shamol olib ketgan guli, ya'ni ma'shuqasining qayerda ekanligi haqidagi savollarga to'la.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, tun va tong motivi zamonaviy o'zbek she'riyatida muhim poetik va estetik konsept sifatida qaror topganini kuzatish mumkin. Ushbu birliklar nafaqat vaqt va tabiat hodisalarini ifodalovchi unsurlar, balki inson ruhiyati, ichki kechinmalari, falsafiy mushohadalari hamda borliq haqidagi tasavvurlarini yorituvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tun obrazida ko'proq tafakkur, iztirob, yolg'izlik, sirli sukunat va ichki kurashlar mujassam bo'lsa, tong timsolida umid, yangilanish, ruhiy uyg'onish va hayotiy davomiylik g'oyalari ifodalanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tun va tong dialektikasi qadimgi davr adabiyotidan boshlab bugungi kungacha o'z mazmunini boyitib, davr talabi va ijodkor tafakkuriga mos holda takomillashib borgan. O'rta asrlar adabiyotida ushbu motivlar diniy-falsafiy va ishqiy talqinlarda namoyon bo'lgan bo'lsa, zamonaviy she'riyatda ular inson shaxsiyati, ruhiy holati va estetik qarashlarini ifodalovchi yetakchi badiiy omilga aylangan.

Abdulla Oripov, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodida tun va tong tasviri lirik obraz yaratishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqib, nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik, umid va iztirob o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni chuqur ramziy ma'noda ochib beradi. Shunday ekan, tun va tong motivini badiiy jihatdan tahlil qilish ijodkorning poetik niyatini anglash, asarning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Nazarov B. Badiiy tafakkur va estetik ideal. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2012. – 224 b.

2.Turkiy adabiyot durdonalari., Abdulla Oripov. "O'zbekiston". Toshkent – 2022. 692-b

3."Sizni kuylayman". "SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI., TOSHKENT., -2007

4.Toshqulova, Z. (2024). JAHON ADABIYOTIDA TUN VA TONG DIALEKTIKASINING QIYOSIY TAHLILI. Молодые ученые, 2(37), 124–127.

ToshqulovaZebinisoBaxriddinqizi.(2024).TUNVATONGDIALEKTLARININGTARIXIYTARAQQIYOTBOSQICHLARIDAGI TAHLILITUN VA TONG DIALEKTLARINING TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARIDAGI TAHLILI. ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research, 1(5), 251–254.